“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi”
aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari diqqatiga !

Jamiyatning nomi:	“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyati (O‘zRVB).
Joylashuvi (pochta manzili):	Toshkent shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 4 uy.
Elektron pochta manzili:	info@uzrvb.uz
Rasmiy veb-sayt:	www.uzrvb.uz

“O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” AJ (O‘zRVB) aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi **2024-yil 26-iyun kuni soat 15-00 da,** Toshkent shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 4-uyda o‘zi borgan holda yoki videokonferensaloqa rejimida “ZOOM” platformasida o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlarning reestri shakllantiriladigan sana: **2024-yil 3-iyun.**

Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishiga qatnashish huquqiga ega aksiyadorlarning reyestri shakllantiriladigan sana: **2024-yil 20-iyun.**

Aksiyadorlar **2024-yil 26-iyun kuni soat 14-00 dan 14-40 gacha** ro‘yxatga olinadi.

AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY YIG‘ILISHI
KUN TARTIBI:

1. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.

2. O‘zRVB sanoq komissiyasi a’zolarining soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

3. O‘zRVB Kuzatuv kengashining 2023-yildagi faoliyati yakunlari bo‘yicha (shu jumladan, O‘zRVB strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi) hisobotini eshitish.

4. O‘zRVB tomonidan xayriya (homiylik) va boshqa xolis ko‘mak ko‘rsatilishining yuqori chegarasini belgilash.

5. O‘zRVBda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish.

6. O‘zRVBning 2023-yil uchun yillik hisobotini tasdiqlash.

7. O‘zRVBning 2023-yil yakunlariga ko‘ra sof foydasini taqsimlash.

8. O‘zRVBning 2024 – 2028-yillarga mo‘ljallangan rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash.

9. O‘zRVBda 2024-yil uchun majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdorini aniqlash va u bilan shartnoma tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

10. “O‘zRVB” AJ ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahririni tasdiqlash.

11. “O‘zRVB” AJ aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi to‘g‘risida”gi, “O‘zRVB” AJ Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi nizomlarga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash.

Shuningdek, O‘zRVB aksiyadorlariga taqdim etilishi lozim bo‘lgan axborot (materiallar) aksiyadorlarga ularning elektron pochtalari orqali bildirishnoma (xat) bilan yuboriladi.

Qo‘shimcha ma’lumot olish uchun: +998 55 501-33-02
Rasmiy veb-sayt: www.uzrvb.uz
Elektron pochta manzili: info@uzrvb.uz

O‘zRVB Kuzatuv Kengashi